

INSON SALOHİYATI – JAMIYAT TARAQQIYOTINING IJTIMOİY OMILLARIDAN BIRI SIFATIDA.

TATU Fargona filiali oqituvchisi

S.Sodiqov

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnik, madaniy-ma’naviy, siyyosiy-huquqiy, diniy-axloqiy, estetik taraqqiyotining asosida insonning ongli faoliyatini tashkillovchi va determinanti inson salohiyati ekanligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: salohiyat, inson salohiyati, intellektual salohiyat, ma’naviy salohiyat, inson kapitali, inson taraqqiyoti, inson resurslari.

Har qanday jamiyatning oldida inson bilan bog‘liq bo‘lgan muammolardan biri uning salohiyatini yuksaltirish, to‘g‘ri yo‘naltirish va realizatsiya qilishdan iborat. Bu borada davlatning vazifasi esa jamiyatning har bir a‘zosi, ayniqsa, yoshlarning salohiyatini yuksaltirish va realizatsiya qilish uchun sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishdan iborat bo‘lib, bu borada O‘zbekiston ko‘plab yutuqlarga erishmoqda. Chunki o‘z hayotida modernizatsiya va islohotlarni amalga oshirayotgan, bu jarayonga innovatsiyalarni tadbiq etayotgan har qanday jamiyat subyektiv omilning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga, buning uchun insonlar salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan siyosat olib borishi zarur. Bu vazifalarni bajarish mamlakat va millat uchun strategik ahamiyatga ega.

Falsafiy adabiyotlarga murojaat qilsak, “inson salohiyatiga turli yondashuvlar mavjudligi va bu tushunchani “inson taraqqiyoti”, “inson kapitali”, “inson resurslari”, “ma’naviy salohiyat”, “intellektual salohiyat” tushunchalariga bog‘liq ekanligini anglaymiz”.

Inson salohiyatining muhim jihatlari uning ijtimoiy mohiyati, ya’ni jamiyat va inson taraqqiyoti natijasida yuzaga kelishi, dialektik va dinamik hususiyatlari bilan

bog‘liq. Jamiyatning globallashuv sharoitida uning ziddiyatli chaqiriqlariga va talablariga javob bera olishi, globallashuv sharoitida yashay olishi jamiyat va uning a‘zolarining salohiyatining qanchalik yuksakligiga bog‘liq.

Inson salohiyati to‘g‘risida so‘z yuritganda, inson salohiyati muammosidan uni tashkil etuvchi omillarni farqlash lozim. “Inson salohiyati insonga tegishli bo‘lgan hususiyatlarni, ulardan ajralmas ichki mohiyatini belgilovchi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Suv ham, havo ham, yashash muhiti ham, moddiy va ma‘naviy boyliklar ham, moliyaviy resurslar ham inson salohiyatiga kirmaydi, ularning barchasi salohiyatni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, realizatsiya qildiruvchi va foydalanuvchi sharoitlar hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, inson salohiyati – insonning ichki tomoni, insondan va turli ijtimoiy birikmalardan tashqaridagilar emas”[1].

Inson salohiyatiga turli ta‘riflarning mavjudligi aytiladi. Bu tushunchaga ta‘rif berilganda, albatta salohiyatning ehtiyojlar asosida yuzaga kelishi, inson kapitali, resurslarining ham taraqqiyotiga dialektik aloqador ekanligi va insonning har qanday ongli faoliyati uning salohiyati asosidagina amalga oshishini nazarda tutish zarur. Inson salohiyatining mohiyati uning avvalo, dialektik, deterministik, gnoseologik, aksiologik, sinergetik hamda praksiologik jihatlari bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Insonning hayoti davomida ajralmas mohiyatini uning antropologik atributi, ya‘ni uning insoniyligini belgilab beruvchi salohiyati tashkil etadi.

Inson salohiyatining asosida moddiy va ma‘naviy resurslar turadi. Mazkur resurslarga praksiologik yondashgan xolda ulardan inson faoliyatida maqsadli va unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jamiyat va inson salohiyati o‘rtasida dialektik aloqadorlik mavjud bo‘lib, bu ikki jarayon o‘zaro bir-birining taraqqiyotini taqozo etadi. Inson salohiyati o‘ziga xos murakkab strukturaga ega bo‘lib, uning tuzilishi bir nechta elementlarni o‘z ichiga oladi. Bunga insonning tug‘ma fazilatlari, sog‘lomligi, bilimliligi, kasbiy ko‘nikmalari va mahorati, intellektual qobiliyati, kreativligi va boshqalar kiradi.

Rossiyalik olim G.M.Solnsevaning fikricha, olimlar tomonidan inson salohiyati o‘rganish kelajakni o‘rganishga qaratilgan. Chunki inson taraqqiyoti kelajak bilan

bog‘liq muammolarning markazida turadi. “Inson salohiyati muammosi – bu kelajak muammosi, inson salohiyatining imkoniyatlarini baholash va uni boshqarish muammosi”[2]. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti natijasida va ta’sirida inson salohiyati shakllanadi, taraqqiy etadi, muntazam ortib boradi. Shunga ko‘ra u jamiyat va uning a’zolarining kelajagini belgilaydi.

Inson salohiyatining takomillashib borishi albatta, jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi subyektiv omil sifatida tavsiflanishi mumkin. Inson salohiyati jamiyatda shakllangan turli sohalarga tegishli munosabatlar doirasida realizatsiya bo‘ladi, jamiyatning ehtiyojlari va manfaatlariga mos ravishda taraqqiy etadi. Ya’ni inson salohiyatining yuzaga kelishi va taraqqiyotining determinanti jamiyat va unda amalga oshadigan ijtimoiy munosabatlardir. Lekin jamiyat taraqqiyoti va inson salohiyatining muntazam yuksalib borishi o‘rtasida o‘zaro dialektik bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu ikki jarayon bir-birining o‘zaro mavjudligi va bog‘liqligini taqozo etadi. Ular o‘zaro determinantlik hususiyatiga ega. Inson salohiyatining taraqqiyoti jamiyat va insonning yangi ehtiyojlarini yuzaga keltiradi. Ehtiyojlarning qondirilishi esa boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar qatori inson – subyektiv omilning salohiyatiga ham bog‘liq.

Hozirgi tez sur‘atlar bilan taraqqiy etib borayotgan ijtimoiy hayotda salohiyat muammosi amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, tobora dolzarblashib bormoqda. Davrning dinamikasi, jamiyat barcha sohalarining uzluksiz taraqqiy etib borayotganligi va bu jarayonlarning nihoyatda tezlashib borishi inson salohiyatini taraqqiyotning muhim omiliga aylantirish bilan birga uni yuksaltirish, yuzaga chiqarish, realizatsiya qilish uchun zarur imkoniyatlar yaratish vazifasini qo‘ydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bizning ustuvor vazifamiz – inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga har tomonlama ko‘maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta’minlashning asosiy shartidir”[3].

Inson taraqqiyoti va uning asosida turuvchi salohiyat muammosiga hozirga qadar iqtisodchi olimlar ko‘proq e’tibor qaratganlar. Mavzu ustida ishlash jarayonida ma’lum bo‘lishicha, salohiyat, uning ijtimoiy falsafiy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha faylasuf

olimlarimiz xali keng ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlaricha yo‘q. Shunga ko‘ra salohiyat, uning iqtisodiy, intellektual, ma’naviy va boshqa shakllari, salohiyatning ijtimoiy mohiyati, uning yuzaga chiqishi va realizatsiya qilinishi kabi muammolar ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab etmoqda.

Inson salohiyatini o‘rganish jamiyat va uning a‘zolari taraqqiyoti, kelajagini o‘rganish va prognozlashtirish demakdir. Salohiyat muammosi jamiyat va ayniqsa, yoshlarning kelajak taraqqiyotiga aloqador. Ma’naviy salohiyat esa jamiyatning iqtisodiy hamda madaniy va ma’naviy yuksalishini ta’minlovchi muhim ijtimoiy – antropologik omildir.[4] Inson salohiyatini o‘rganish ma’lum ma’noda futurologik yondashuvga asoslanadi, chunki falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda, jamiyatning kelajakda qanday bo‘lishini, qanday omillar asosida taraqqiy etishini o‘rganmoqchi bo‘lsak, eng avvalo inson va uning kelajagini tahlil etish zarur, chunki jamiyat kelajagi – bu inson kelajagi va aksincha, inson kelajagi – bu jamiyat kelajagi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иванов О. И. Человеческий потенциал (формирование, развитие, использование) монография Санкт-Петербург: Скифия – принт, 2013.- С. 336.
2. Солнцева Г.Б., Смолян Г.Л. Человеческий потенциал: размышления содержания понятия. В кн.: Человеческий потенциал: опыт комплексного подхода / РАН. Ин-т человека; Под ред. Фролова И.Т. - М.: Эдиториал УРСС, 1999. С. 59.
3. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент.: “O‘zbekiston” нашриёти 2021. –Б.22.
4. Sodiqov, S. (2024). YOSHLARDA FAOL POZITSIYANI SHAKLANTIRISHNING MILLIY-TARIXIY ASOSLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 45-45.